

## ABDURAUUF FITRATNING QARASHLARIDA OILANI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA AN'ANAVAIY OILA MUNOSABATLARI

*Pardayev Abdurahim Chori o'g'li*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Falsafa kafedrası stajyor-o'qituvchisi*

*e-mail: [choriyevich94@mail.ru](mailto:choriyevich94@mail.ru)*

*tel: 97 140 06 00*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning oila va oilaviy munosabatlarga doir qarashlari tahlil qilingan. Unda mutafakkirning oilani jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholashi, farzand tarbiyasi, er-xotin munosabatlari, ayolning oiladagi o'rni hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqidagi fikrlari yoritilgan. Shuningdek, Fitratning "Oila" asaridagi g'oyalarining bugungi davr uchun dolzarbligi ilmiy asosda ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Abdurauf Fitrat, oila, oilaviy munosabatlar, tarbiya, ma'naviyat, jadidchilik, axloq, ayol tarbiyasi.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются взгляды Abdurauf Fitrat на семью и семейные отношения. Освещаются идеи мыслителя о значении семьи в развитии общества, воспитании детей, взаимоотношениях супругов, роли женщины в семье, а также духовно-нравственных ценностях. Кроме того, раскрывается актуальность идей Фитрата, изложенных в произведении «Семья», для современного общества.*

***Ключевые слова:*** *Абдурауф Фитрат, семья, семейные отношения, воспитание, духовность, джадидизм, нравственность, воспитание женщин.*

### ANNOTATION

*This article analyzes the views of Abdurauf Fitrat on family and family relations. The study highlights the thinker's ideas about the role of family in social development, child upbringing, marital relations, the position of women in the family, and spiritual and moral values. The relevance of Fitrat's ideas presented in his work "Family" for contemporary society is also scientifically discussed.*

***Keywords:*** *Abdurauf Fitrat, family, family relations, upbringing, spirituality, Jadidism, morality, women's education.*

## KIRISH

Bugungi kunda oila institutini mustahkamlash, yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi dolzarb аҳамият kasb etmoqda. Shu jihatdan jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitratning oila va oilaviy munosabatlarga oid qarashlarini o'rganish муҳим аҳамиятга эга. Fitrat o'zining "Oila" asarida oilani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, farzand tarbiyasi, er-xotin munosabatlari, ayolning oiladagi o'rni hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ҳақида муҳим фикрларни илгари suradi. Mufakkirning bu qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

### Asosiy qism

Abdurauf Fitrat o'zining oila va tarbiyaga oid qarashlarida oilani jamiyatning eng muhim ma'naviy tayanchi hamda inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin etadi. Ma'lumki, insonning taqdiri, kelajak hayotidagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, hattoki kayfiyati, uning oilaviy muhiti bilan bog'liqdir. Oilaning taqdiri esa insonning o'ziga bog'liq. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu hislatlarini xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar.<sup>1</sup> Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi. Oila bu odobu axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Mamlakatimizniig mustaqillik davrida oilalarimizning ijtimoiy huquqini himoya qiluvchi vakafolatlovchi ko'plab muhim qonun va qarorlar qabul qilindi.

Ma'lumki, oilaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi ajdodlarimizdan bizga o'tgan bilim va tajriba, madaniy qadriyatlar asosida va zamondoshlarimiz erishgan yutuqlari negizida barpo bo'ladi. Bizning davrimiz oilalarimizga zamonaviy texnologiya va jahonning yuksak taraqqiyotga erishgan rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan o'zgarishlar haqidagi tasavvur va qarashlar hamda axborotlarning kirib qelayotganligi bilan ajralib turadi. Biroq o'tmishimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimizning oilaviy an'ana va urf-odatlarini yuqori madaniy darajada bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Bu sohada to'plangan bilimlar asosida Jadidchilik harakatining yerkin namoyandasi Abdurauf Fitrat oila to'g'risidagi o'z bilimlarini Sharq va G'arb

<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 15.

olimlarining ko‘plab ilmiy tadqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida mustahkamlab, nihoyat oila masalasida shunday mukammal yo‘riqnomani dunyoga keltirdiki, hozirgi kunga qadar ham uning dolzarbligi va ahamiyati yo‘qolgani yo‘q.

Kitob Buxoroda 1914 yili yozilib, 1915 yilda chop etilgan. Asarning noshiri Mirzo Abduvohid Munzim bo‘lgan. O‘sha davridayoq asar Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan va jamoatchilikning diqqat e‘tiborini tortgan.<sup>2</sup>

Ma‘lumki, Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar harakat bo‘lgan Turkiston va Buxoro jadidchiligining ko‘zga ko‘ringan vakili edi. Milliy ziyolilar va taraqqiyparvar kuchlarning mustamlaka bo‘lgan Turkistonning chuqur inqirozga yuz tutganligini, Rossiyaga yarim qaram bo‘lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligining ayanchli ahvolini, ularning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolib ketganligini, mahalliy xalqning erk va hurriyatga intilishlarini bo‘g‘ish sabablarini, iqtisodiyot va ma‘naviy hayotda turg‘unlik va deppinish holatlarini anglab yetishi, ularning ongida jamiyatni isloh qilish g‘oyasini paydo qildi. Birinchi navbatda islohot madaniy-maishiy va ma‘naviy hayotga tegishli edi. Jadidlarning fikri bo‘yicha, oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yoshavlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq.<sup>3</sup> Bu g‘oya Fitratning asarida o‘z ifodasini topgan: «Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarning intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi», ---deb yozadi, u.

Fitrat asarda chuqur va keng bilimlarga asoslangani bois, o‘tkir mutaxassis sifatida fikr yuritadi. U insonlarga axloq-odobdan saboq berishga, oila tutish qonun-qoidalarini odamlarga o‘rgatishga haqqi bor, zero, bu masalada bilim darajasi bo‘yicha, u bilan zamondoshlaridan hech kim tenglasha olmas edi. Istisno tariqasida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Hifzi sihati oila” («Oila sog‘ligining himoyasi») maqolasini tilga olmaslik mumkin emas, lekin Fitratning kitobidan so‘ng chop etilgan bu maqolada muammo faqat qisman yoritilgan edi. Islomshunoslik fani va dunyoviy ilmlardan boxabar bo‘lgan Fitrat asarda huquqshunos, sosiolog, pedagog va tabib sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, u Qur‘oni karimning 30 oyatlari, hamda ko‘plab hadislardan, 20 dan ortiq islom mutafakkirlari asarlaridan foydalangan. Shu bilan birga fransuz olimlari faylasuf va tarixchi Sharl Senobos va sosiolog, iqtisodchi Pol Demar asarlarini tahlil qilib, ularning xulosalarini o‘rinli ishlatgan. U tadqiq qilgan

<sup>2</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 3–4.

<sup>3</sup> Rajabov Q. Jadidchilik falsafasi va milliy g‘oya. – Toshkent: Akademnashr, 2024.

masalalar doirasi juda keng bo‘lib, nima uchun oila qurish kerak, degan savolga javob berishdan tortib to ota-ona va bolalar huquqlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammolarini o‘z ichiga olgan. O‘quvchi emizikli go‘dak bolani boqish va to‘g‘ri parvarishlash tizimi haqida hamda ona bo‘lishga tayyorlanayotgan yosh ayollarning o‘zini qanday tutishi kerakligi, oilada totuvlikda, ahil va inoq yashash uchun turmusho‘rtoqlari bir-birlariga qanday munosabatda bo‘lishlari, oila majburiyatlarini qanday taqsimlash zarurligini diqqat bilan o‘qib zarur xulosalar chiqaradi.

Abdurauf Fitratning fikricha, farzandni to‘laqonli kamol toptirib o‘stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma‘naviy tarbiyadan iborat ko‘ptarkibli tarbiya berish muhimdir. Fitrat bolaning ruhiyati, ota-ona va farzand ruhiyatlarining nisbati va o‘zaro bog‘lanishi masalasiga katta e‘tibor berar ekan, u bizning hozirgi tushunchamizdagi iste‘dodli ruhshunos-pedagog sifatida ham ko‘rinadi.<sup>4</sup> «Odamning fe‘l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim», – deb yozadi, u. «Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr-qimmatini, sha‘nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga yon-atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o‘rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasin... Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni mann etmasliklari, balki axloqqa zid bo‘lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo‘lishini qo‘llab-quvvatlashi kerak», – deydi. Tarbiyaning har bir qismini nomlagan Fitrat mehnatsevarlik va bilim olish tarbiyasiga alohida e‘tibor bilan yondoshadi va ota-onalari «...bu ish ularga (bolalarga – D. A.) chidam, g‘ayrat va jur‘at etilishini, ertaga baxtga erishgandan so‘ng, bu baxt kechagi zahmat natijasida yuzaga kelganligini tushuntirishlari lozim, shunda bolalar baxt siridan xabardor bo‘ladilar», – deb ishontiradi.

Fitrat risolasi insonparvarlik his-tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, ayniqsa, bu oilada ayollar mavqei masalasida yaqqol ko‘rinadi, zero ayol – rafiqqa, farzand va onadir. Fitrat ayol kishi o‘ziga e‘tibor va nozik hislik munosabatini talab qiluvchi, oilani teng huquqli a‘zosi ekanligini isbotlaydi. Ayollar, qizlar bilim olishga hammadan ham ko‘ra ko‘proq iptilishlari lozim, zero bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar; farzandlarning kelajakda qanday shaxs bo‘lib voyaga yetishlari, ularga onalari nima beraolganliklariga bog‘liq bo‘ladi. Fitratning bu nuqtainazari hozirgi kunimiz uchun ham juda muhimdir.

Fitrat o‘z qarashlarini Qur‘on oyatlari va hadislardan dalillar keltirib tushuntiradi. Asar matnida keltirilgan Qur‘on oyatlari Abdurauf Fitratning erkin

<sup>4</sup> Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 15-18.

tarjimasida mazmuni ixchamlashtirilgan va ba'zan mazmun bayoni shaklida berilgan. Oila muammolari haqida so'z yuritar ekan, muallif o'z davri va zamoniga xos bo'lgan ta'lim-tarbiyaning noo'rin va zararli usullaridan ham misollar keltiradi. Abdurauf Fitratning ko'p fikrlari va xulosalari hozir ham dolzarb va zamonaviyligini uning quyidagi fikri ham isbotlaydi: «Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq».

Hozirgi davr kundalik hayotimizni nazarga olganidek u: «Budunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismutan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir», –deya uqtirgan. Bugungi kunda ham asarning amaliy qimmati yo'qolmagan. Ma'naviyatimiz uchun esa u nihoyatda kerakli manba va intellektual mulkimizning noyob bir namunasi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning oila va oilaviy munosabatlarga oid qarashlari jamiyat taraqqiyoti hamda inson kamolotida oilaning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Mutafakkir oilani ma'naviy-axloqiy tarbiya maskani sifatida baholab, farzand tarbiyasi, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat va mas'uliyat, ayollarning ma'rifatli bo'lishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, sog'lom va mustahkam oila jamiyat barqarorligi hamda millat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir.

Shuningdek, Fitratning “Oila” asarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, oilada sog'lom muhitni shakllantirish hamda oila institutini mustahkamlash masalalarida mutafakkirning qarashlari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Fitrat merosini o'rganish va uning g'oyalaridan tarbiya jarayonida samarali foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurauf Fitrat. Оила. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2020.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Tafakkur, 2021.
4. Shavkat Mirziyoyev. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
5. Абдуллаев А. Жадидлар маънавияти ва миллий тафаккур. – Тошкент: Navro'z, 2023.

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
7. Ҳайитов Ҳ. Оила ва маънавий тарбия масалалари. – Тошкент: Фан ва технология, 2022.
8. Ражабов Қ. Жадиdчилик фалсафаси ва миллий ғоя. – Тошкент: Akademnashr, 2024.